

*MEHNAT VA IJTIMOIIY MUNOSABATLAR AKADEMIYASI, MEHNAT
SOHASINI BOSHQARISH FAKULTETI USLUBCHISI*

FARXODOVA MAHLIYOBONU XUSANJON QIZI.

[*mahliyobonufarxodova@gmail.com*](mailto:mahliyobonufarxodova@gmail.com)

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada pedagogik menejmentning o'ziga xos jihatlari, ta'limga menejmental yondashuvning o'ziga xos jihatlari, o'zbek pedagogikasining rivojlanish tarixi va bugungi kun istiqbollari haqida to'xtalib o'tilgan. Ta'limga, pedagogikaga menejmental yondashuv asosida bugungi kundagi ta'lim sifati, yetuk malakali kadrlar yetishtirishga bo'lgan talabning susayishi, pedagogik samaradorlik sohasidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha qisqacha mulohazalar, takliflar va tavsiyalar keltirib o'tilgan.*

Keywords: *pedagogika, menejment, o'zbek pedagogikasi tarixi, pedagogik mahurat, ta'lim – tarbiya.*

Kirish. *Bugungi kunga har bir sohaga islohot kirib borgani kabi pedagogika sohasida ham yangi transformatsiyalarni, islohotlarni kiritishni zamon talab qilmoqda. Sababi bugundan boshlab eskicha yashay olmaymiz, eskicha yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi.*

Yangi O'zbekiston islohotlarining asosini shubxasiz pedagogika sohasidagi islohotlardan boshlanishini o'zi ham sohaning transformatsiyaga qay darajada muhtoj ekanligini ko'rsatib o'tyapti. Mamlakat rahbari tomonidan Yangi O'zbekistonni quruvchilari aynan o'qituvchilar bo'ladi deb, o'qituvchilar maqomining konstitutsiyaviy norma sifatida bosh qomusimizda belgilab berilishi ham bu sohadagi o'zgarishlarning birinchi qonuniy asoslaridan biri bo'ldi.

Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish Pedagogning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash Pedagogikanidagi asosiy tushuncha

sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi. O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxs tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy-intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo'ladi.

Pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarini o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. O'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarini shakllantirish masalalarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyani tashkil etish, uyushtirish va uni boshqarish singari tashkiliy-pedagogik ishlar qonuniyati pedagogikaning menejment sohasi tomonidan ishlab chiqiladi.

Pedagogikaga, ta'limga menejment tushunchasi qo'llanilganda ko'pchilik tomonidan nimaga iqtisodiy tushuncha bo'lgan "menejment" atamasini pedagogikaga ham bog'lash mumkin degan muammoli savollar tug'iladi. "Menejment" atamasini, umuman qaysi bir atamani ilmiy va falsafiy mushohada qiladigan bo'lsak atama o'zining ayniylik holatidan ma'lum bir yo'nalish va sohaga taalluqli jihatlari bilan shu soha hamda tarmoqqa xos xususiyatni ifodalaydi. Misol uchun "pedagogika" asli "bola yetaklovchi" ma'nosidan "ta'lim va tarbiya beruvchi fanlar majmui" nisbat ma'nosi bilan ilmiy va kundalik istemolda keng ishlatiladi. Menejment ham shu ma'noda ta'limni boshqarish,

ta'limni to'g'ri yo'naltirish, ta'limni istiqbollarini bashoratlash maqsadlarida qo'llaniladi.

20-asr boshlaridan pedagogik menejment fani pedagogikaning alohida tarmog'i sifatida dunyoga keldi. Unda jahondagi turli xalqlarning pedagogik qarashlari va ta'lim-tarbiya tizimi qiyosiy-genetik yo'sinda bir-biriga solishtirilgan holda o'rganilgan hamda uning islohotlarini mamlakat pedagogika sohasining rivojlanish istiqbollariga joriy qilishadi. Pedagogikaning bu tarmog'i ta'lim-tarbiya borasidagi eng ilgor usul va yondashuvlarni solishtirish, maqsadga muvofiqlarini muayyan milliy pedagogik fan va amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. Mamlakatimizda hozircha pedagogik menejmentni alohida fan sifatida shakllantirish, soha mutaxasislarini tayyorlash tizimida jiddiy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbek pedagogikasi juda qadimiy tarixga ega bo'lib, uning dastlabki ildizlari Avestota, Urxun-Enasoy bitiklarida, Selung'ur madaniyatiga borib taqaladi. Avestodagi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal haqidagi, kishilarga ko'ngil ma'rifati berish borasidagi qarashlar yozma milliy pedagogik qarashlarning dastlabki namunasi bo'lib, yetuk insonni shakllantirishga yo'naltirilgan. Milliy pedagogikaning taraqqiyotida islom dini va tasavvuf ta'limoti hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki Qur'oni karim, Xadisi sharif va tasavvuf ta'limotining markazida axloq, komil inson ma'naviyatini shakllantirish turardi. Komil inson ta'lim-tarbiya yordamida, ya'ni pedagogikaning vositasida tarkib toptirilishi mumkin edi. Forobiyning "Fozil odamlari", Beruniy, Ibn Sino falsafiy qarashlaridan o'rin olgan yetuk shaxslar, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy asarlarida tasvirlangan benuqson odamlar, Abduxoliq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab orzulagan komil inson o'zbek pedagogikasining markazida turardi. 17-asrdan boshlab, milliy pedagogikada ta'lim-tarbiyaning mohiyatiga emas, balki tashqi jihatlariga e'tibor kuchaydi, turmush talablarini hisobga olmay, hayotiy zamindan uzilish sodir bo'ldi. Natijada, jamiyat taraqqiyoti susaydi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ham tanazzulga yuz tutildi.

Pedagogikadagi biqlik, biryozlamalik kishilar ruhiyatiga ko'chdi, undan ijtimoiy tartibotlar va siyosiy qurilmalarga o'tdi. Butun bir davlat xonliklarga bo'linib ketdi. Xonliklarning har birining ichida bir-biri bilan kelishmovchilik hamda o'zaro janjallar avj oldi. Negaki, jamiyat va unda yashaydigan insonlarning ma'naviy o'rnaklari puxta tayin etilmagan edi. Rossiya bosqini va sho'rolar zamonida milliy pedagogika kuchli tanazzul davrini boshdan kechirdi. To'g'ri, ayni shu davrda u ilmning alohida sohasi sifatida tarkib topdi. Lekin sho'ro davridagi o'zbek pedagogikasi to'lig'icha g'arbiy asoslarga qurilgan, begona tamoyillarga tayangan fan bo'ldi. Unda millat ma'naviy tajribasi, uning asrlar mobaynida shakllangan an'analari, ruhiy to'lg'amlari hisobga olinmagandi. Shuning uchun ham to'liq dahriylik asosiga qurilgan begona pedagogika ko'zlagan natijalarga erisha olmadi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi natijasida millim ong bo'g'uvdan, mafkuraviy qolipdan, buyruqqa muvofiq jazolash zug'umidan qutuldi. Bu hol pedagogikaning sog'lom aql, milliy ruhiyat va an'analarga moye tarzda yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi. Bugungi o'zbek pedagogikasi millat ruhiyatidagi nozik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarga tayangan qolda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan. Bu pedagogik ta'lim - tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishlarini ko'zda tutadi. Bolalar, yoshlar pedagogik jarayonning ob'yektigina emas, balki sub'yekti, ya'ni ijrochisi ham ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda, barcha pedagogik tadbirlar ta'lim-tarbiya oluvchilarning mustaqil faoliyatlarini ta'minlash, ularda tarbiyalanish va o'qishga ehtiyoj uyg'otishga yo'naltirilgan xilda tashkil etilmoqda. Bugungi o'zbek pedagogikasi uchun muayyan bilimlar yig'indisi emas, balki bola shaxsi bosh qadriyatga aylangan. Shuning uchun ham milliy pedagogikada faqat bilimli o'quvchilar tayyorlashga emas, balki izlanuvchan, tashabbuskor shaxsni shakllantirishga asosiy e'tibor berilmoqda.

Xulosa va takliflar : bugungi kunda pedagogika sohasidagi islohotlarni rivojlantirish ayniqsa, sohada yangi yetuk kadrlar yetkazib berish muammosini

hal qilish masalasi alohida ahamiyatga ega. Soha kadrlarining ilmiy salohiyati oshirish, islohotlarning debochasi hisoblanadi. Yetuk mutaxassis kadrlarni ishlab chiqish uchun :

- Ushbu sohada kadr yetkazib beruvchi oliy ta'lim muassasasi, yo'nalishlari va filiallari tizimini shakllantirish;
- Shu soha mutaxassislarining xorijda stajirovkalar va qayta tayyorlov tizimlarini yo'lga qo'yish;
- Mutaxassislar klassifikatorlari bo'yicha malaka talablarini kuchaytirish;
- Sohaga o'z mutaxassislarini jalb qilish.

References

1. Pedagogika, T., 1996; O'zbek pedagogikasi tarixi, T., 1997; Qurbonov Sh., Seytxalilov E., Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: pedagogik tadqiqotlar yo'nalishi va muammolari, T., 1999; O'zbek pedagogikasi antologiyasi [tuzuvchilar: K. Hoshimov, S. Ochil], 1-, 2-j.lar, T., 1995, 1999.
2. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Uzedu.uz [Ta'lim qonuni, 1997 y, 3-modda, 1-jumla \(Wayback Machine\)](#) saytida 2013-07-23 sanasida [arxivlangan](#)
4. Pedagogika. (Ma'ruzalar matni. Prof. N.Gaybullayev taxriri ostida). T. „Universitet“. 1999.
5. Ochilov M. Universitetlar tizimida pedagog xodimlar tayyorlash muammolari. „Ta'lim va tarbiya“ jurnali. 1997. 5-6 son.
6. S.G'ulomov “Menejment asoslari” – T, “Sharq”, 2002.
7. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
8. Rahmonova, S. (2023). YANGI O 'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.

9. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVİYATLÍ AVLOD-UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.

10. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.

11. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).